

O'SMIR VA KATTALAR MULOQOTI

Akbaraliyeva Asilaxon Tajiddinovna*Toshkent amaliy fanlar universiteti "Psixologiya" kafedrası o'qituvchisi***Shoyusufova Muslima Kamoliddin qizi***Toshkent amaliy fanlar universiteti Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi**1-bosqich talabasi*muslimashoyusupova671@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada o'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlari va ularning kattalar bilan muloqot jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Muloqotdagi asosiy muammolar, jumladan, tushunmovchilik, avtoritar uslub va texnologik tafovutlarning salbiy oqibatlari yoritiladi. Samarali muloqotning tamoyillari – hurmat, faol tinglash va qo'llab-quvvatlash usullari asosida o'smir va kattalar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: O'smirlik davri, ota-ona va farzand muloqoti, psixologik o'zgarishlar, ijtimoiy moslashuv, tushunmovchilik, faol tinglash, texnologik tafovut.

O'smirlik davri har bir inson hayotida o'ziga xos o'tish bosqichi bo'lib, bu davrda yoshlarda mustaqil fikrlash, o'zligini anglash va hayotiy maqsadlarni belgilash jarayoni shakllanadi. Ushbu jarayon davomida kattalar – ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyatning boshqa a'zolari bilan boradigan sog'lom muloqotning o'zni beqiyos. Hozirgi kunda oilaviy munosabatlar, texnologiyalar rivoji va yosh avlodning ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlari sababli o'smirlar va kattalar o'rtasidagi muloqotda muammolar yanada kuchaymoqda. Ushbu mavzuni o'rganish orqali oilaviy barqarorlikni ta'minlash, o'smirlarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash va kattalar bilan o'zaro anglashuvni rivojlantirishga imkon yaratish mumkin. Shu bois, bu masala zamonaviy psixologiya va pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'smirlik davri har bir inson hayotidagi murakkab va o'ziga xos bosqichlardan biridir. Bu davrda o'smirlar jismoniy, psixologik va ijtimoiy o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Shu sababli, kattalar bilan muloqotda ko'pincha tushunmovchilik va ziddiyatlar yuzaga keladi. Muloqotning sifatli tashkil etilishi esa nafaqat o'smirning rivojlanishi, balki oilaviy muhitning barqarorligi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

O'smirlik davrida inson shaxs sifatida shakllanadi. Bu davr o'smirning o'zligini anglash, mustaqil fikrlash va o'z qobiliyatlarini sinovdan o'tkazish istagi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, o'smirlar o'z hissiyotlarini boshqarish va fikrlarini to'g'ri ifoda etishda muammolarga duch kelishadi. Bu esa kattalar bilan muloqot jarayonida tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. O'smirlik davri inson hayotida shaxsiy rivojlanishning eng muhim va murakkab bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda

o'smirlar o'z fikrlarini mustaqil ifoda etishga, tengdoshlari orasida o'z o'rnini topishga intiladilar. Shu bilan birga, ularning kattalar bilan muloqoti ko'pincha qiyinchiliklarga to'la bo'ladi. Ushbu muammo nafaqat oila, balki ta'lim muassasalari va jamiyat uchun ham dolzarbdir.

Muloqot jarayonida bir qancha ziddiyatlar ham uchrashi tabiiy holatlardan biri bo'lib, bunga bir qancha misollar keltirish mumkin. Ota-onalar va pedagoglar ko'pincha o'z fikrlarini majburlash orqali o'smirlarni boshqarishga harakat qiladilar. Bu esa o'smirlarning noroziligiga va ichki qarshiliklariga sabab bo'ladi. O'smirlar o'z hissiy holatini so'z bilan ifodalashda qiynalishi mumkin. Kattalar esa bu holatni noto'g'ri talqin qilib, o'smirlarni to'g'ri tushunmasliklari mumkin. Bugungi kunda texnologiyalar va madaniy qadriyatlar farqi kattalar va o'smirlarning turlicha fikrlashiga olib kelmoqda. Natijada, muloqotdagi uzilishlar kuchaymoqda.

O'smir va kattalar o'rtasidagi sog'lom muloqotni ta'minlash uchun o'smirlar o'z his-tuyg'ularini bimalol ifoda eta oladigan muhit yaratish muhimdir. Kattalar o'smirlarning so'zlarini tanqid qilmasdan tinglashlari kerak. Kattalar o'smirlarni kichik deb qabul qilish o'rniga, ularni bir shaxs sifatida hurmat qilishlari lozim. Kattalar o'smirlarning muammolariga diqqat bilan quloq solib, ularga yordam berish orqali o'zaro ishonchni mustahkamlaydilar. Kattalar o'smirlarning texnologiyaga bo'lgan qiziqishlariga moslashib, ular bilan zamonaviy mavzularda suhbatlashishni o'rganishlari kerak. Nafaqat kattalar o'smirlarga moslashishlari balki, o'smirlar ham kattalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni bilishlari va buni amalda qo'llashlari shart va zarurdir.

Kattalar va o'smirlar muloqotini yaxshilash uchun o'smirlar bilan suhbatlashayotganda ularni tanqid qilishni chegaralash kerak. Suhbatni samimiy tarzda olib borish orqali ular bilan yaqinlikni oshiring. Hurmat va tenglik tamoyiliga amal qilish, ularni qo'llab-quvvatlash orqali ular bilan zavqli muloqot olib borishingiz mumkin.

O'smir va kattalar o'rtasidagi muloqot nafaqat oilaviy, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik uchun ham muhimdir. Samarali muloqot oila muhitini yaxshilaydi, o'smirlarning psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va avlodlar o'rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etadi. Shu sababli, kattalar va o'smirlar o'rtasidagi sog'lom muloqotni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov R. O'smirlar psixologiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2020. 256 b.
2. Karimova V. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi muloqot psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2018. 192 b.
3. Qodirova N. "O'smir va kattalar o'rtasidagi muloqot muammolari." Psixologiya va pedagogika tadqiqotlari jurnali, №3 (2022), 45–58.

4. Abdullayev Sh. Oilaviy muloqotning o‘smirlarning rivojlanishiga ta’siri. Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, 2021.
5. Zokirov S. O‘smirlik davri va shaxsiy identifikatsiya. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti, 2021.
6. Mamatqulova N. “Oilaviy munosabatlarning o‘smirlarning psixologik holatiga ta’siri.” Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali, №2 (2020), 112–120.
7. Buxoro davlat universiteti. O‘smirlar ijtimoiylashuvi va kommunikatsion rivojlanishiga oid tadqiqotlar. Toshkent: BuxDU nashriyoti, 2023.

